

XOJAGON-NAQSHBANDIYA TA'LIMOTI SHUKRONALIK ASOSI
Kendjayeva Zumrat Astanovnaning-Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
tadqiqotchisi
E-mail: zumradkenjayeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Xojagon-naqshbandiya tariqati vakillarining fikricha, shariat bilimlari va dunyoviy bilimlar zohiriy bilimlar hisoblanishi tahlil qilingan hamda shukronalik fazilatining inson kamolotidagi o'rni manbalarga tayangan holda, Bahouddin Naqshband hayot yo'llari va o'g'itlari asosida falsafiy tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: Xojagon-naqshbandiya tariqati, Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya, shukronalik, noshukrlik, ijobiy quvvat, salbiy quvvat, holat.

БЛАГОДАРЕНИЕ В УЧЕНИИ ХОДЖАГОН-НАКШБАНДИИ
Кенджаева Зумрат Астановна-Научный сотрудник Бухарского
инженерно-технологического института
E-mail: zumradkenjayeva@gmail.com

Аннотация: В статье, по мнению представителей секты Ходжагон-Накшбанди, шариатские знания и мирские знания рассматриваются как внешние знания, а роль добродетели благодарности в развитии человека философски анализируется на основе источников, путей Бахауддина Накшбанди. жизнь и учение.

Ключевые слова: секта Ходжагон-Накшбандия, Бахауддин Накшбанд, Накшбандия, благодарность, неблагодарность, положительная энергия, отрицательная энергия, статус.

THE BASIS OF GRATITUDE OF THE DOCTRINE OF KHOJAGON-NAQSHBANDIYA
Kendjayeva Zumrat Astanovna-Bukhara Institute of Engineering and
Technology researcher
E-mail: zumradkenjayeva@gmail.com

Abstract: In the article, according to the representatives of the Khojagon-Naqshbandi sect, Sharia knowledge and worldly knowledge are considered external knowledge, and the role of the virtue of gratitude in human development is analyzed philosophically based on the sources, Bahauddin Naqshband's ways of life and teachings.

Key words: Khojagon-Naqshbandiya sect, Bahauddin Naqshband, Naqshbandiya, gratitude, ingratitude, positive energy, negative energy, status.

Kirish

Odamni kamolga yetishishida barcha insoniy fazilatlarining o'ziga xos o'rni bor. Ammo ularni ichida shukronalik fazilatining o'rni kattadir. Inson Alloh tomonidan mukarram qilib yaratildi, unga sanoqsiz ne'matlar tuganmas yaxshiliklar ato qilindi. Bu ne'matlar va yaxshiliklar bilan boshqa xalq qilinganlardan afzal qildi. Shu bilan birga Alloh bandalar shukr qilsalar, ularga ne'matlarini ziyoda qilishni va'da qildi va itoat qilsalar bu ne'matlar davomiyligi va boqiyiligini kafolatini berdi. Qur'oni Karimni "Ibrohim" surasining 7-oyatida: "Yana Robbingiz e'lon qilgan (bu so'zlar)ni eslangiz: "Qasamki, agar (bergan ne'matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni) yana ziyoda qilaman. Bordi-yu, noshukrlik qilsangiz, albatta, azobim (ham) juda qattiqdir" marhamat qilingan. Shukr qilgan inson ham jismonan, ham moddiy, ham ma'naviy-ruhiy tomondan kundan-kunga kamol topadi, ziyodali va barakali bo'ladi. Naqshbandiya ta'limotida ham inson kamoloti uchun shukr, zikr, fikr asosiyligi ta'kidlangan.

Har bir din va e'tiqod, birinchi navbatda, mazkur din bilan bog'liq bo'lgan ilmlarga asoslanadi. "Ilm" arabcha so'z bo'lib, uning ma'nosi bilmoq, tushunmoq, ma'lum bir sohaga tegishli ma'lumotlar yig'indisi, fan, ma'rifatdir. Tarixiy taraqqiyot davomida ilm haqidagi Qur'oni karimdagi oyatlar, Hadisi sharifdagi hadislar juda ko'p insonlarni ilm egallashga, uni targ'ib etishga da'vat etib kelgan. Ta'kidlash joizki, Qur'oni karimda ilm so'zi va uning shakldoshlari 811 joyda zikr qilingan. Hadisi sharifda "Olimlar payg'ambarlarning vorislaridir" degan muborak hadisning mavjudligi ham bejiz emas, albatta. Shu sababli Sharq xalqlari hayotida ilm juda yuqori qadrlangan, olimlarga bo'lgan munosabat masalasi yuksak bo'lgan. Ilm nima, olim kim degan masala, ilmlarni tasnif etish muammosi bashariyatning diqqat markazidagi masalalardandir [1.45].

Asosiy qism

Xojagon-naqshbandiya tariqati vakillarining fikricha, shariat bilimlari va dunyoviy bilimlar zohiriy bilimlar hisoblanadi. Zohiriy bilimlar bu Yaratganni bilishning birinchi bosqichidir. Allohni bilish dunyoni bilishdan boshlanadi.

Shukronalik fazilati insonni kamolotga yetkazadi va uning holatini ilohiyga aylantiradi. Noshukrlik insonni jisman, ma'nan va moddiy tomondan qashshoqlanishiga va o'zgalar yonida qadrsiz, hurmatsiz bo'lishiga olib keladi. Shukronalik insonni Go'zal va Ulug'vor bo'lishiga yordam bersa, noshukrlik uni xunuk va past insonga aylantiradi. Tasavvufda insonlarni ikki xil: Nuriy va noriyga bo'ladilar. Nuriy inson ezgu ishlarga kamarbasta, ilohiy nurlar yog'ilib turgan kishidir. Noriy kishi esa hasad, g'azab, kibr olovida yonadigan, har bir qiladigan ishini ta'ma qiladigan odamlardir. Shukronasi bor inson yuz-ko'zidan nur yog'ilib turadi, barakali bo'lib, hamisha xolis xizmat qiladi. Ko'pning duolari nuridan uning vujudi purnur bo'lgani uchun ularni nuriy inson deyish mumkin. Aksincha, noshukr, zalolat, g'aflatda qolganlar noriy odamlardir. Noshukrlik ularning jismi, qalbi va ruhini kasal qiladi.

Solik erishgan tasavvufning ma'rifat bosqichi esa, botiniy ilm hisoblanadi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "ma'rifat" so'zini quyidagicha izohlaydi: "Islomiy nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ma'rifatning, ya'ni bilimdonlikning asosi o'zining kimligini, hayotdagi o'rmini va maqsadini, burchi va mas'uliyatlarini anglashdan boshlanadi. Ana shularni to'g'ri anglab yetmagan inson har qancha bilimli bo'lsa ham, ma'rifatli hisoblanmaydi. Binobarin, ma'rifatning avvali Haq taoloning borligini mushohada etishdan boshlanadi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, insonni kamolotga yetkazuvchi yo'llardan birini "ma'rifat" deb atalishi ham bejiz emas" [2].

Abduxoliq G'ijduvoniylar ilm o'rganmasdan turib, boshqa ilmga kirishmaslikka, har qanday ilmni o'rgangan inson unga albatta, amal qilishi kerakligiga, qilinadigan amallarni sidqidildan bajarishga, hamisha ilmning qadr-qimmatini baland tutishga da'vat etgan. Jumladan, "Maqomoti Miri Kulol"da xojagon tariqati asoschisining muridlariga ta'kidlagan quyidagi nasihatlarini keltiriladi: "qaerda bo'lmang, sizning oldingizda qanday qi-yinchiliklar bo'lmasin, to'siqlar, daryolar, olovlar bo'lsa ham, siz ularni bartaraf etib, bilimni egallashingiz kerak. Faqat ilmgina insonga haqiqiy ruh, rohat bag'ishlaydi"[3].

Tasavvuf vakillarining ta’kidlashicha, solik ilm olish yo’lida har qanday mavjud to’siqlarni yengib o’ta olishi lozim. “Alloh Taollo farmonlariga mutavajjih bo’ling! Qaerda bo’lmang, ilm talabidan uzoqda yurmang va agar obu otash daryolariga duch kelsangiz ham, g’avvos bo’lib kechib o’tingu, ilmga yeting”, - deb ta’kidlaydi Amir Kulol [4].

Buyuk fizik olim Isaak Nyuton butun olam tortishish qonunini yaratib, moddiy narsalarning mexanik tortishi haqidagi g’oyani kashf etgan. Falsafadagi metafizik yondashuv asosida tahlil qilsak, insondagi ruhiy quvvatlar ham o’ziga uyg’un quvvatlarni tortadi, ya’ni ijobiy quvvatlar ijobiylarni, salbiy quvvatlar esa salbiyni. Bahouddin Naqshband va boshqa azizu avliyolarga bu ilohiy, ruhiy qonuniyat ayon bo’lgan va ular hamisha ezgu ishlarni qilib, ezgu niyat bilan yurganlar. Demak, Bahouddin Naqshband va valiyilar Isaak Nyutondan oldin butun olam tortishish qonunini mukammal kashf qilganlar. Ular butun olam tortishish qonunini faqat moddiy zarrachalar orasida mexanik amal qilinishini emas, balkim ma’naviy-ruhiy quvvatlar tebranishi va harakatlarida ham amal qilinishini kashf etganlar. Shuning uchun ham shukronalik butun olamdagi ijobiy quvvatlarga ta’sir etib, aks ta’sirni hosil qiladi. Shuning uchun ham shukronalik holatida inson ilohiy nuru fayz, rahmatu marhamatdan bahramand bo’la oladi.

Manbada yozilishicha, Bahouddin Naqshband umrlari davomida faqat ezgu ish qilganlar va shunday ish qila olganlari uchun qalblaridan shukr deganlar. Naql qilishlaricha, Bahouddin Naqshbandni o’zlari aytgan ekanlarki: Buxoroda edim, Sayyid Amir Kulolning sharif suhbatlariga ko’nglimda mayl paydo bo’ldi. Nasafga yo’l oldim. Yetib kelganimda ular menga dedilar: “Ey rizojo’y farzand, ayni vaqtida kelding, xumdonni taxt qilib qo’yanman, ammo o’tin yiqqani odam yo’q”. Men bu ishoratga shukr qildim va o’tinni orqamga ko’tarib, xumdonni oldiga olib keldim.

Bayt:

Jamoli Ka’ba chunon medavondam ba nishot,

Ki xorhoi mug’iylon harir meoyad [5:59].

Mazmuni:

Ka'baning jamolini ko'rishga shodlik bilan shunday chopdimki, Hatto mug'ilyon daraxtining tikonlari ipakdek yumshoq bo'ldi.

Manbadagi bu naqldan ma'lum bo'ladiki, Bahouddin Naqshband ko'ngillardagi ustozlari Amir Kulolga paydo bo'lgan maylni farosat ilmlari [6] bilan mohiyatini anglaganlar va ustozlarini uylariga borganlar. Hazrat Amir Kulol u kishiga "rizojo'y farzand" deb behudaga aytmaganlar. Chunki Bahouddin Naqshband hamma vaqt butun borliq va koinot rozi bo'ladigan amalni qilishga shoshilganlar va shunday amallarni qila olgani, birovga ezgulik qilgani uchun shukronalar deganlar. Shuning uchun ham xalq u kishini e'zozlab: Bahouddin - dinning yorug'ligi, ravshanligi, Shoh Naqshband - insonlar qalbiga Alloh naqshini bog'lovchilarning shohi, Balogardon - Alloh izni bilan kelayotgan balolarni qaytarishga madad beruvchi inson nomlari bilan ulug'laganlar [7:21-32]. Bahouddin ustozlariga o'tin kerakligini bilib, shod-xurramlik ila ulug' shukrona qilib, Ka'bani jamolini ko'rayotgandek o'tinlarini terayotgan paytda, mug'ilyon tikanlari u kishiga ipakdek yumshoq ko'ringan. Bu holat tahlili ko'rsatadiki, inson mehnat jarayonida shukronalik bilan ishlasa, u ish unga zavqu shavq, kuchu quvvat beradi. Shukronalik bilan ustoziga xizmati, bir tomondan duolarini olishga sababchi bo'lsa, ikkinchi tomondan Bahouddin ruhlarini ham yuksaklikka ko'tarib jismu jonlariga xotirjamlik bag'ishlagan. Ko'rinib turibdiki, shukronalik juda katta ilohiy quvvatga ega ulug' ne'matdir.

Manbada naql qilinishicha, Hazrat Xoja Bahouddin Naqshband Qasri Orifonda masjid imoratiga mashg'ul bo'lgan vaqtlarida muborak boshlarida tuproqni masjid tomiga olib chiqar ekanlar va mana bu baytni o'qir ekanlar:

Ba jon bikunam kori tu, charo nakunam,

Ba sar bikasham bori tu, charo nakasham [5:61].

Mazmuni:

Sening ishingni jon deb qilaman, nega qilmayin,

Sening yukingni boshimda ko'taraman, nega ko'tarmayin.

Manbadagi bu naqldan ma'lum bo'ladiki, Bahouddin Naqshband masjid qurilishidagi xizmatlarini jonu dil va shukronalik bilan qilganlar. Bu xizmatni

sharaf deb bilganlar. Shuning uchun ham butun borliq va koinot duoda bo'lib, Alloh rahmati va marhamatini bu kishidan ayamagan.

Manbada yozilishicha, Bahouddin juda oddiy va kamtarona kun kechirganlar. Bu haqida u kishining o'zlari aytgan quyidagi bayt manbada yozilgan:

Na maro mafrashu na mafrashkash,
Na g'ulomoni turku tarkashkash.
Hamma shab chu sagoni kahdoni,
Sar ba dum ovaram ba jismi xash [5:85].

Mazmuni:

Menda na ko'rpa boru na farrosh,
Turk g'ulomlari ham menda yo'q.
Tun bo'yi men itlar kabi,
Boshimni dumimga qo'yib yotaman.

Faqirona, moddiy holat u kishiga hech qanday ta'sir qilmagan. Bahouddin hamisha zavqu shavq bilan Alloh berganiga qanoat qilib, shukronalik bilan yashaganlar. U kishining bu holatlaridan o'zlari aytgan quyidagi ikki bayt guvohlik beradi:

Hechi mo neyu hechi mo kam ne,
Az payi hech-hechi mo g'am ne.
Janda bar pusht, pushti go'riston,
Gar bimorem hech motam ne [5:85].

Mazmuni:

Hech narsamiz yo'g'u, hech narsadan kamimiz yo'q,
Hech narsaning ketidan g'amimiz ham yo'q.
Yelkada jandayu go'riston yonimizda,
Agar o'lib qolsak hech bir motam ham yo'q.

Bahouddin Naqshbandning bu mashhur misralari u kishining qalblari Alloh ishq bilan limmo-lim ekanligi va uning bergan ne'matlariga shukronalik bilan yashashlaridan dalolat beradi.

“Maqomot”da Bahoudinning aytgan shunday soʻzlari keltiriladi: Kamolot va nisor ahli Ollohdan fayz oladi va visolga yetuvchi abadiy umr topib, buning shukrini ado qilmoqchi boʻlsa ham ado qilolmaydi.

Gar biguyam shukri lutfat bardavom,

Bigzarad umru nagardat in tamom [5:155].

Mazmuni:

Sening shukringni toʻxtamay aytsam ham,

Umrin tugaydi, ammo uni tamom qilolmayman.

Bahouddin va shu kishi kabi kamolotga yetgan insonlar Allohning marhamatini, fayzu barakatini oʻzlarida his qilganlar va qancha shukr qilsalar ham uni yetarli emasligini anglaganlar. Shuning uchun ham Alloh ularga rahmat bilan qaragan va bara-kotlari cheksiz boʻlgan.

“Har bir tavfiq egasi oʻz nafsiga qarshi turmogʻi va bu har qancha oz boʻlsa ham koʻp bilsin hamda bu tavfiqning shukrini qilsin”, [5:115] degan Bahouddin. Naqshbandning bu oʻgitlari, Alloh tavfiqi, madadiga shukr etish lozimligini bizga uqtirmoqda.

Shukronalik halollik va poklikning ham asosidir. Shukrona qiladigan inson halol luqмага qanoat qiladi. Halollik esa tinchlik va xotirjamlik asosidir [9:11]. Halollik va shukronalik gʻoyalirini shakllanishida Buxoroyi sharif “Yetti pir”ining xizmatlari katta [9:51-52].

Shukronalik ruhida tarbiyalashda tasavvufning Naqshbandiya taʼlimotining oʻrni kattadir. Bu taʼlimotdagi oʻn bir rashha insonni shukronalik ruhida tarbiyalaydi. Taʼlimotning birinchi rashhasi “Hush dar dam” har bir dam, har bir nafasga shukr qilish lozimligini oʻrgatadi. Shoir Sadriddin Salim Buxoriy “Hush dar dam” rashhasidagi gʻoya taʼsirida bitilgan Olmon adibi Gyotening quyidagi baytlarini tarjima qilgan:

Nafas olmoq hamda chiqarmoq erur,

Ikki ehson, buni anglamoq zarur.

Biri siqar, oʻzgasi yangi quvvat,

Shular sabab hayot goʻzaldir gʻoyat.

Allohga shukr de, nafas kirgan on,
Shukr de nafasing chiqargan zamon [10].

Bahouddin Naqshband “Avrod” risolasida: “Yo Alloh, bizni shukringni ado etuvchi qil!” [11:53], deb iltijo qilganligi yozilgan. Hazrat Alisher Navoiy Shayx Abulqosim Bishr Yosin haqida keltirgan ma’lumotda Shayx Abu Said Abulxayr aytgan quyidagi ruboiyni keltiradi:

Jonon, sensiz qarorim yo‘qdur,
Sening ehsonlaringning sanog‘iga yetolmayman.
Tanamdagi har bir tuk tilga aylanganda ham,
Ming shukringdin birini ado qilolmayman [12:207].

Manbada yozilishicha, shu ruboiyni muntazam takrorlagan inson haqiqtni topadi va haqqa yetadi. Bu shundan dalolat beradiki, shukronalik shunday ilohiy quvvatki, insonni oliy had darajasigacha kamolga yetkazadi.

Xulosa

Xojagon-naqshbandiyada ilm va amal, irfon va ma’rifat haqidagi qarashlar Alisher Navoiyning asarlarida ilm-ma’rifatning xususiyatlari, ilimli insonlarning fazilatlarini mukammal tarzda ifodalash orqali bayon etilgan. Uning “Nazm ul-javohir”, “Majolis un-nafois”, “Hayrat ul-abror”, “Sittai zaruriya”, “Nasoim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Siroj ul-muslimin” va “Xamsat ul-mutahayyirin” kabi asarlarida Qur’on ilmlari va ilohiy da’vatlar asosiy o‘rin egallagan.

Umumiy xulosa qilib aytganimizda, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun yoshlarni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalashimiz zarur. Shukronalik ruhida tarbiyalangan yoshlarni ijobiy fikrlaydigan va jamiyatni hamjihat, do‘stligini ta’minlaydigan ijobiy quvvat deb hisoblash mumkin. Yoshlarni shukronalik ruhida tarbiyalashda ma’naviy merosimizning barcha ijobiy tomonlaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish yaxshi samara beradi. Bahouddin Naqshband hayot yo‘llari va Naqshbandiya ta’limotidagi shukronalikka oid ilg‘or fikrlarni ta’lim va tarbiya jarayonida va ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib etishda foydalanish o‘rinlidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Баҳодиров Р.М. Илмлар фазилати. Т.: Қатортол-Камолот, 1997. 45 бет.
2. www.islom.uz сайтидан олинди.
3. https://n.ziyouz.com/books/adabiy_esdaliklar/Matyoqub%20Qo'shjonov.%20Diydor.pdf
4. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/22957>
5. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд // Форсийдан таржимон, сўз боши, изоҳ ва луғат муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. Тошкент: “O'zbekiston” НМИУ, 2019. 385 б.
6. Бекмуродов М. Фаросат илми.Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбба ижодий уйи, 2022. 191 б.
7. Наврўзова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. Т.: «Фан». 2021. 244 б.
8. Наврўзова Г. Ҳалоллик-тинчлик ва хотиржамлик асоси. Imom Buxoriy saboqlari. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. 2022/1. 9-11-б.
9. Наврўзова Г. Бухорои Шарифнинг «Етти пир» и ҳалол тушунчаси хусусида. Imom Buxoriy saboqlari. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. 2022/4. 51-52.
10. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 251-261.
11. Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод (Тўлдирилган қайта нашр). Мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи, таржимон Г.Н Наврўзова, Т.: “Sano-standart nashriyoti”, 2019. 111 бет.
12. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. Ўн еттинчи том. Т.: “Фан”, 2001.518 б.